



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA IJTIMOIY MOSLASHUVNI SHAKLLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTISHNING NAZARIY-USLUBIY JIHATLARI

Dildora Otaxonova

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, magistr

Zulfiya Mamarajabova

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, professor

Annotatsiya

Mazkur maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ijtimoiy moslashuv jarayonini samarali tashkil etishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslari yoritiladi. Tadqiqotda maxsus pedagogika, xususan surdopedagogika yo'nalishida so'nggi yillarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar tahlil qilinib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning jamiyatga integratsiyalashuvi jarayonida nutqiy va kommunikativ ko'nikmalarning o'zni ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Maqolada kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ijtimoiy moslashuvning asosiy omili sifatida ko'rib chiqilib, uning tarkibiy qismlari — kognitiv, emotsional-irodaviy, motivatsion hamda xulq-atvor komponentlari yoritiladi. Shuningdek, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda og'zaki muloqot, dialogik nutq, so'z boyligini oshirish, nutqiy faoliyatni rivojlantirish va ijtimoiy muhitga moslashish jarayonlari o'zaro bog'liq tizim sifatida tahlil qilinadi. Maqolada ijtimoiy adaptatsiya va rehabilitatsiya tushunchalarining mazmun-mohiyati, ularning o'zaro aloqadorligi hamda kommunikativ kompetensiya bilan integratsiyasi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuvida innovatsion pedagogik texnologiyalar, didaktik o'yinlar, suhbat va mashqlar tizimining ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar, ijtimoiy moslashuv, kommunikativ kompetensiya, so'zlashuv nutqi, mashqlar, dialogik nutq, suhbatlar, didaktik o'yinlar, jonli muloqot, innovatsion texnologiyalar, og'zaki muloqot, surdopedagogika, nazariy-uslubiy jihatlar.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЕМ СЛУХА

Дилдора Отахорова

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, магистрантка

Зульфия Мамараджабова

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, профессор

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы развития коммуникативной компетентности в эффективной организации процесса социальной адаптации у детей с нарушениями слуха. В исследовании анализируются научные работы последних лет в области специальной педагогики, в частности, сурдопедагогики, и научно обосновывается роль речевых и коммуникативных навыков в процессе интеграции детей с нарушениями слуха в общество. Рассматривается формирование коммуникативной компетентности как ключевой фактор социальной адаптации, выделяются её компоненты — когнитивный, эмоционально-волевой, мотивационный и поведенческий. Также анализируются как взаимосвязанная система процессы устной коммуникации, диалогической речи, развития словарного запаса, развития речевой деятельности и адаптации к социальной среде у детей с нарушениями слуха. В статье научно и теоретически обосновывается содержание и сущность понятий социальной адаптации и реабилитации, их взаимосвязь и интеграция с коммуникативной компетентностью. В нем также подчеркивается важность инновационных педагогических технологий, дидактических игр, системы бесед и упражнений в адаптации детей к социальной жизни.

Ключевые слова: дети с нарушениями слуха, социальная адаптация, коммуникативная компетенция, разговорная речь, упражнения, диалогическая речь, беседы, дидактические игры, живое общение, инновационные технологии, устное общение, сурдопедагогика, теоретико-методические аспекты.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING

COMMUNICATIVE COMPETENCE IN THE FORMATION OF SOCIAL ADAPTATION OF CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENTS

Dildora Otaxonova

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Master's Student

Zulfiya Mamarajabova

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Professor

Abstract

This article discusses the theoretical and methodological foundations of the development of communicative competence in the effective organization of the process of social adaptation in children with hearing impairments. The study analyzes scientific research conducted in recent years in the field of special pedagogy, in particular, surdopedagogy, and scientifically substantiates the role of speech and communicative skills in the process of integration of children with hearing impairments into society. The article considers the formation of communicative competence as a key factor in social adaptation, and highlights its components - cognitive, emotional-volitional, motivational and behavioral components. Also, the processes of oral communication, dialogical speech, vocabulary development, speech activity development and adaptation to the social environment in children with hearing impairments are analyzed as an interrelated system. The article scientifically and theoretically substantiates the content and essence of the concepts of social adaptation and rehabilitation, their interrelationship and integration with communicative competence. It also emphasizes the importance of innovative pedagogical technologies, didactic games, a system of conversations and exercises in the adaptation of children to social life.

Keywords: children with hearing impairments, social adaptation, communicative competence, colloquial speech, exercises, dialogic speech, conversations, didactic games, live communication, innovative technologies, oral communication, surdopedagogy, theoretical and methodological aspects.

Bugungi kunda maxsus pedagogika va surdopedagogika sohasida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga samarali moslashtirish dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish muhim o'rin tutadi, chunki muloqot ko'nikmalari bolaning jamiyat bilan integratsiyalashuvi, o'z fikrini ifoda etishi va ijtimoiy munosabatlarni o'rnatishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqiy faoliyatni rivojlantirish, so'z boyligini kengaytirish hamda dialogik muloqotni shakllantirish ularning ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Shu sababli mazkur maqolada kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning nazariy va uslubiy jihatlari, shuningdek, uning ijtimoiy adaptatsiyadagi o'rni ilmiy asosda yoritiladi.

Yangi O'zbekiston milliy maxsus pedagogikasida so'nggi o'n yilliklarda eshitishda nuqsoni mavjud bolalarni tarbiyalash, ularga ta'lim berish hamda ijtimoiy-maishiy hayotga moslashtirishga oid pedagogik, psixologik va metodik masalalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu jarayon ilmiy-konseptual hamda amaliy yondashuvlarning yangilanishi bilan bog'liqdir. Olimlarning amaliyotga tatbiq etgan pedagogik tavsiyalari hamda ilmiy qarashlarida o'quvchilar shaxsi rivojidagi nuqsonlar sabablarini aniqlashda, ularni keltirib chiqaradigan barcha ijtimoiy omillarni hisobga olish zarurligi ilgari surilgan.

Adabiyotlar tahlili

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarni bosqichma-bosqich shakllantirish hamda rivojlantirib borish maxsus ta'lim tizimining muhim vazifalar sirasiga kiradi. Chunonchi, L.R. Mo'minova "birinchidan nogironlikka ega odamlarga ularning jismoniy, psixik va intellektual imkoniyatlaridan qat'iy nazar, ijtimoiy e'tiborning oshishi, ikkinchi tomondan demokratik, fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan shaxs qadr-qimmati va huquqlarini himoyalash zaruriyatining oshishi mazkur guruh odamlarini psixologik-pedagogik ishining dolzarbligini belgilaydi", deb fikrlaydi [6].

M.M. Arslonova e'tiroficha, "Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaning jamiyatdagi faol ishtiroki, mustaqilligi, emotsional-irodaviy holatini hisobga oluvchi inklyuziv ta'lim muhitiga moslashtirish, nogironligi bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvi va integratsiyalashuvida ijtimoiy tajribalarning amaliy ahamiyatini sifatida ijtimoiy tajribani namoyon qilish va uni shakllantirishda jamiyatning o'zi va uning turli institutlari birlamchi va to'laqonli muhit vazifasini bajaradi, mazkur tajriba ta'lim va tarbiya oldidagi, ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalarga doir vazifalarning samaradorligini ta'minlaydi va amalga oshirishni osonlashtiradi. Jamiyat muhitida ijtimoiy tajriba insonning erkin hayot kechirishini ta'minlaydi,

bu uning jamiyatning boshqa a'zolari bilan turli sohalaridagi munosabatlarida hamjihatligi, o'zaro tengligi va hamkorligi uchun imkoniyat yaratadi" [4; 32-b.].

F.U. Qodirova "Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiy muhitga moslashish darajasini pedagogik ko'rsatkichlarning integrativ yaxlitligi, barqarorligi va natijadorligiga ustuvorlik berishni korrelatsion baholash asosida aniqlashtirish, shaxs hayoti davomida ehtiyojlarini qondirishi, o'zi va o'zgalar manfaatlarini ko'zlagan holda ma'lum harakatlarni amalga oshirishi uning boshqa insonlar bilan o'zaro muloqoti orqali amalga oshirilishini asoslaydi" [3; 32-b.].

"Shaxsning muhitga moslashuvi ijtimoiy va shaxsiy omillarning o'zaro aloqadorligida amalga oshadi. Ma'lum muhitda rivojlanayotgan bola o'z faolliklarini anglay boshlaydi, ya'ni o'z-o'zini bilishi, anglashi sodir bo'ladi. Bu jarayon ijtimoiy anglashdir. Asta-sekin muhit ta'sirida o'z xatti-harakatlari orqali faoliyatini qayta o'zgarishga yo'naltiradi, bu davr unda dunyoqarashning kengayishi, tajribalarning ortishi, ma'lumotlar, voqeliklar haqida mustaqil fikrlaydigan hamda o'z fikrini qarshi qo'ya oladigan darajada shakllanganligi bilan bog'liqdir", deb e'tirof etadi [2; 32-b.].

S.F. Turg'unboyev fikricha, ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish shunchaki yangi sharoitga moslashish emas, bu murakkab jarayon bo'lib, shaxs faoliyatining ijtimoiy muhitga moslanish darajasini pedagogik ko'rsatkichlarning integrativ yaxlitligi, barqarorligi va natijadorligiga ustuvorlik berishning korrelatsion jabhalarini o'z ichiga qamrab oladi. Ijtimoiy rehabilitatsiya uzluksiz davom etuvchi jarayon bo'lib, o'zgarishlarga moslashish qobiliyati nafaqat sog'lom insonlar, balki imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ham hayotiy muhim ahamiyat kasb etadi. O'zgarishlarga tayyorlik o'ziga xos tarzda rivojlanayotgan insonlar hayotidagi muvaffaqiyatning asosiy shartlaridan biriga aylanadi [5; 6-b.].

A.O. Abdunazarov ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish bu bola hayot faoliyati uchun ahamiyatli bo'lgan shaxsiy xususiyatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan majmuaviy ta'sirlar bo'lib, bolani faol hayotiy holatga undovchi ish turlarini ko'zda tutishini ta'kidlaydi [4].

Ko'plab pedagogik va ijtimoiy hodisalarda kuzatilgani kabi, eshitishda nuqsoni mavjud bolalarni ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish tushunchasi ham turli jihatdan — jarayon, faoliyat yoki yakuniy natija sifatida izohlanishi mumkin. Bunday yo'naltirish bir tomondan mutaxassis shaxsiyati bilan, ikkinchi tomondan esa faoliyat va muloqot subyekti sifatida jarayonga jalb etiluvchi bolaning shaxsiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur jarayonning yakuniy maqsadi esa eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga to'laqonli integratsiyalashuviga erishishdir.

Shu boisdan, eshitishda nuqsoni mavjud bolalarni ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish jarayon sifatida pedagogik rehabilitatsiyaning mohiyatini to'la ifodalaydi. Chunki protsessual yondashuv dinamik rivojlanish g'oyasini, shuningdek, kar va zaif eshituvchi bolalarning insoniy salohiyatlarini to'liq namoyon etishga pedagogik jihatdan maqsadli yo'naltirish g'oyasini yaqqol ochib beradi.

S.T. Posoxovanning ta'kidlashicha, "ijtimoiy adaptatsiya ijtimoiy, tabiiy, madaniy va predmet omillar hamda ular bilan o'zaro munosabatlar usullarini birlashtirgan real hayot sharoitida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir" [5].

"Har bir omilning ta'siri ma'lum bir psixologik ta'sir bilan birga keladi. Bir qator vaziyatlarda ularning qaysi biri ijtimoiy adaptatsiya jarayonlarining rivojlanishida ustunlik qilishini aniqlash juda murakkablik tug'diradi. Bunday hollarda, muallifning fikricha, odatda adaptatsion mexanizmlarni ijtimoiy, ruhiy va somatik darajada birlashtirish zarurati tug'iladi" [6].

Metodologiya

Tadqiqotda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish va ijtimoiy moslashuv jarayonini o'rganishda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, surdopedagogika, maxsus pedagogika va psixologiya sohasidagi ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, mavjud pedagogik yondashuvlar tizimlashtirildi. Empirik kuzatish va amaliy tajribalarni o'rganish orqali kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali usullar (dialogik mashqlar, didaktik o'yinlar, suhbat va nutqiy treninglar) aniqlashtirildi.

Tadqiqot natijalari va muhokama

Ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish tushunchasiga, rehabilitatsiya tushunchasi kabi, jarayon, oqibat, natija sifatida qarash mumkin. Shunday qilib, sabab-oqibat jihati ko'rinadi: natijada adaptatsiya jarayonning natijasi hisoblanadi. Ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish jarayonining samarali borishi shaxsni moslashganlik holatiga olib kelishi mumkin bo'lgan adaptivlik mexanizmlarining shakllanishini ta'minlaydi. Ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirishning asosiy tarkibiy qismlarini kognitiv, hissiy-irodaviy, xulq-atvor va motivatsion sohalariga kiritish mumkin.

S.A. Xrustalev ko'rish qobiliyati zaif nogironlarni ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish

strukturasini ko'rib chiqar ekan, uni adaptatsiyaning uch darajasi: atrofdagi predmetli dunyoga, ijtimoiy-psixologik muhitga va o'z-o'ziga moslashishni ajratgan holda insonning ko'rish nuqsoniga moslashishining aqliy jarayoni sifatida tushunishni taklif qiladi. Bunda, muallifning pozitsiyasiga ko'ra, adaptatsiyaning har bir keyingi darajasi avvalgisiga qaraganda ancha murakkab, ammo u bilan bog'liqdir [5].

Ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish muammosining muhim jihati — butun jarayonning samaradorligini belgilaydigan shaxsning ma'lum bir salohiyatiga tayanish sanaladi. Shaxsning reabilitatsion salohiyati muammosi bilan T.V. Zozulya, M.M. Kabanov, Z.I. Lavrenteva, D.Ye. Melexov shug'ullanishgan. T.V. Zozulyaning fikricha, "reabilitatsion salohiyat — bu insonning biologik, psixofiziologik xususiyatlari, shuningdek, u yoki bu darajada uning potensial qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beradigan va buzilgan funksiyalari hamda ijtimoiy aloqalarni tiklashning mumkin bo'lgan ehtimoliy darajasini belgilaydigan ijtimoiy-muhit omillari majmuidir" [4; 111-b.].

Boshqa tadqiqotchilar "shaxsning reabilitatsion salohiyatini ma'lum bir nogironni reabilitatsiyaning turli bosqichlarida haqiqiy reabilitatsiya jarayoni sharoitiga samarali kiritish imkoniyati sifatida tushunadilar (reabilitatsiyaning tibbiy, tibbiy-kasbiy, ijtimoiy bosqichlarida); ya'ni bu shaxsning reabilitatsiya faoliyatiga qo'shilishga ma'lum tayyorgarligi bo'lib, bu uning rivojlanishining keyingi prognozini aniqlash imkonini beradi. Aynan nogiron bolaning reabilitatsiyasiga yaqinligi sababli, individual reabilitatsion salohiyatni "reabilitatsiyadan oldingi va hayot faoliyatidagi cheklov og'irligidagi farq — tibbiy, psixologik, pedagogik va ijtimoiy reabilitatsiya choralarini qo'llash natijasida" orqali tushunish bizning ishimizga ko'proq mos keladi" [1; 13-b.].

Bir qator mualliflar shaxsning reabilitatsion salohiyatini o'rganish zarurligiga e'tibor qaratib, amalga oshirilayotgan faoliyatning eng muhim tomonlarini aks ettiruvchi aqliy jarayonlarning, inson faolligini kuchaytirishi va zaiflashtirishi mumkin bo'lgan hissiy tarkibiy qismlarning, shuningdek, xatti-harakat motivlarining rolini ta'kidlab o'tadilar. Motiv qanchalik muhim bo'lsa va u qanchalik yaxshi ifodalansa, tayyorlikni shakllantirish uchun shunchalik tez qulay sharoitlar yaratiladi. Shundan kelib chiqqan holda, shaxsning salohiyatida muvaffaqiyatli ijtimoiy-pedagogik moslashuvning zaruriy sharti sifatida kognitiv (o'rganish qobiliyati, jamiyat haqida ma'lum bilimlarning mavjudligi, ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabat va boshqalar), hissiy (suhbatdoshni tushunish qobiliyati, vazminlik va boshqalar), motivatsion (o'rganish istagi, motivatsiya va boshqalar) va xulq-atvor (qoidalarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyati, amaliy faoliyat bilan bog'liq ko'nikmalar va o'zaro ta'sir ko'nikmalarining mavjudligi, muayyan ko'nikmalarining shakllanganligi va boshqalar) komponentlarini ajratish mumkin.

Ushbu fenomenni tushunishimizga yaqin bo'lgan yana bir ta'rif tug'ma nuqsonlari bo'lgan shaxslarga nisbatan reabilitatsiya tushunchasidan foydalanish imkoniyatini ko'rsatadi. Olimlar reabilitatsiyani kasallik, jarohatlar va tug'ma nuqsonlar natijasida funksiyalari buzilgan shaxslarning ular yashayotgan jamiyatdagi yangi turmush sharoitlariga moslashishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar majmui sifatida belgilaydilar. Mazkur holat reabilitatsiya va ijtimoiy moslashuv o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatib, shu asosda ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya jarayonini anglash imkonini beruvchi ma'lumot sifatida qaralishi mumkin. Bu odamlarni jamiyatga kiritadigan, ularni ijtimoiy hayotda ishtirok etish qobiliyati bilan ta'minlaydigan yoki ularni dezadaptatsiya va yolg'izlikka duchor qiladigan ahamiyatli, asosiy jarayonlarni hisobga olishni talab qiladi. "Ijtimoiylashuv" va "adaptatsiya" kabi fenomenlarning ochib berilishida mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan ishlanmalar mavjud [1; 5].

Adaptatsiya keng ma'noda — bu atrof-muhit sharoitlariga moslashishdir. Ijtimoiy adaptatsiya (lotincha "*adapto*" — moslashish, "*sotsium*" — jamiyat) deganda jamiyat tomonidan belgilangan maqsadlar, qadriyatlar va me'yorlarni o'zlashtirish hamda qabul qilish orqali ijtimoiy muhit sharoitlariga faol moslashish jarayoni tushuniladi. Shaxsning adaptatsiyasi insonning turmush sharoitidagi barcha muhim o'zgarishlar, shuningdek, mikrosotsium — oiladagi turli xil o'zgarishlar bilan sodir bo'ladi, ya'ni u yoki bu darajada adaptatsiya jarayonlari doimiy ravishda kechadi, chunki atrof-muhit sharoitlari muntazam ravishda o'zgarib turadi.

Ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish tarkibiy tuzilmasiga kirgan "**ijtimoiy adaptatsiya**" va "**ijtimoiy reabilitatsiya**" tushunchalari o'rtasidagi eng yaqin aloqani ushbu ikki jarayonning yakuniy natijasini tahlil qilishda ko'rish mumkin. Agar ijtimoiy adaptatsiya natijasi shaxsning moslashganligi bo'lsa, ijtimoiy reabilitatsiyaning yakuniy maqsadini ko'rsatish uchun "**sotsioreadaptatsiya**" tushunchasi qo'llaniladi.

Sotsioreadaptatsiya, J.M. Glozmaning fikriga ko'ra, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxsning

hayot sifatini belgilaydigan ijtimoiy reabilitatsiya jarayonining yakuniy natijasi sanaladi. Sotsioreadaptatsiya faqat mehnat readaptatsiyasi bilan cheklanib qolmaydi, balki nogironning atrofdagi voqelik bilan o'zaro ta'sirining barcha tizimlari va darajalarini qamrab oladi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxsning hayot sifati, birinchi navbatda, uning hayotiy faoliyatining aqliy va jismoniy xususiyatlaridan subyektiv qoniqish bilan belgilanadi [5; 474-b.].

V.Z. Kantor "ijtimoiy reabilitatsiya maqsadini to'g'ri aniqlash uchun dastlabki asos «umumsotsiologik xususiyatga ega bo'lishi», «ko'zi ojiz odamlar tomonidan o'zlashtirilgan va qo'llaniladigan ijtimoiy hayotning barcha shakllari va usullarini sifat jihatidan» aks ettirishi va «barcha ijtimoiy darajalarga nisbatan qo'llanishi» kerakligini ishonchli tarzda isbotlaydi" [4; 42-b.]. Ushbu talablar asosida muallif "turmush tarzi" va "hayot sifati" toifalariga murojaat qilib, masalani hal qiladi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, "aynan «turmush tarzi» toifasi nogironlarning «ma'lum ijtimoiy-tarixiy sharoitlar uchun me'yoriy turmush tarzini amalga oshirishga» tayyorligini ta'minlashdan iborat pedagogik reabilitatsiya maqsadlarini aniqlash uchun asos bo'ladi" [5; 43-b.].

Ijtimoiylashuv muammosi va uning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya bilan bog'liqligi juda noaniq talqin qilinadi. Ijtimoiylashuv — bu insonning butun umri davomida o'zi yashayotgan jamiyatning ijtimoiy me'yorlari va madaniy qadriyatlarini egallash hamda o'zlashtirish jarayonidir. Bizning fikrimizcha, bu ta'rif ijtimoiylashuv hodisasining mohiyatini to'liq aks ettirmaydi, chunki shaxsning faolligi va uning o'zini o'zi ifodalash istagi chetda qoladi.

Ijtimoiylashuv fenomenini fanlararo o'rganish asosida L.V. Andreyeva, D.I. Boykov, Ye.F. Voylokov, Yu.G. Yelizarova, V.Z. Kantor kabi tadqiqotchilar bu jarayon shaxsni ijtimoiy va shaxslararo munosabatlar tizimiga kiritishni va bu munosabatlarning mustaqil ifodalanishini nazarda tutishini, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat va munosabatlar sohasida erkin ifodalanish imkoniyati yo'qligida namoyon bo'ladigan sotsializatsiyaning buzilishi shaxs desotsializatsiyasining qo'shimcha omili hisoblanishini isbotladilar [6; 89-b.].

Eshitish qobiliyati zaif bolalar rivojlanishidagi og'ishlarni yengib o'tishning hal qiluvchi vositasi sifatida so'z boyligini oshirish, nutqning tovush tarkibini aniqlashtirish, tilning grammatik tizimini o'zlashtirish hamda nutq faoliyatining turlari va shakllarini egallashga qaratilgan maxsus til o'qitish tizimi qo'llaniladi. Eshitish qobiliyati zaif bolalar maktabida olib boriladigan pedagogik jarayon o'quvchilarning nutqiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, u ikki asosiy yo'nalishda tashkil etiladi. Bir tomondan, bu jarayon o'quvchilarning maxsus ta'limdan tashqari mustaqil ravishda nutq boyligini kengaytirish imkoniyatlarini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, ular tomonidan mustaqil o'zlashtirilgan nutq materialini tuzatishga xizmat qiladi.

Bunda so'zlarning tovush tarkibini aniqlashtirish, ularning leksik va grammatik ma'nolarini to'g'rilash, shuningdek, o'quvchilar nutqida lug'atni faollashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Maxsus pedagogik jarayonda eshitish qobiliyati zaif bolalarni o'qitishda polisensor yondashuv muhim o'rin tutadi. Shu sababli ta'lim jarayonida labdan o'qish malakalarini shakllantirish, bunda ko'rish va eshitish-ko'rish bilan birga taktil-tebranish sezgirligini jalb etish zarur.

Bundan tashqari, nutqning optik-akustik tushunchalarini rivojlantirish, nutqning harakatli va kinestetik asosini tashkil etuvchi nutq texnikasiga oid maxsus mashg'ulotlar o'tkazish ham talab etiladi. Shuningdek, qoldiq eshitish qobiliyatini rivojlantirish va undan samarali foydalanish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilishi lozim.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalasi maxsus pedagogika va surdopedagogika fanlarida muhim o'rin tutadi. Chunki ushbu toifadagi bolalarda nutqiy muloqotning cheklanganligi ijtimoiy moslashuv jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ularning kommunikativ imkoniyatlarini rivojlantirish nafaqat ta'limiy, balki ijtimoiy-reabilitatsion ahamiyatga ham ega.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kommunikativ kompetensiya ko'p komponentli tuzilma bo'lib, u kognitiv bilimlar, emotsional munosabat, motivatsion yo'nalish va amaliy muloqot ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Ushbu komponentlarning uyg'un rivojlanishi bolalarning ijtimoiy muhitga moslashuv darajasini oshiradi. Ayniqsa, dialogik nutqni shakllantirish, vizual va sensor vositalardan foydalanish hamda didaktik o'yinlar orqali muloqotga kirishish imkoniyatlarini kengaytirish samarali usullar sifatida e'tirof etiladi.

Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar, jumladan, multimodal yondashuv, vizualizatsiya va interaktiv mashg'ulotlar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon nafaqat til ko'nikmalarini, balki ijtimoiy xulq-atvor va

mustaqillikni ham shakllantiradi.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish ijtimoiy moslashuvning asosiy omili sifatida bolalarning jamiyatga integratsiyalashuvini ta'minlaydi va ularning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Quyida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga doir asosiy pedagogik yo'nalishlar keltiriladi.

Ushbu jadval kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari va ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tizimli ravishda yoritishga xizmat qiladi.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

Kommunikativ kompetensiya tarkibi	Rivojlantirish usullari	Kutiladigan natija
Kognitiv (bilim va tushunish)	Nutqiy mashqlar, vizual materiallar, so'z boyligini oshirishga doir topshiriqlar	Tushunish darajasining oshishi, yangi so'zlarni o'zlashtirish
Emotsional-irodaviy	Rolli o'yinlar, suhbatlar, hamkorlikdagi faoliyat	Muloqotga kirishishdagi ishonch va emotsional barqarorlik
Motivatsion	Rag'batlantiruvchi mashg'ulotlar, interaktiv metodlar	Muloqotga bo'lgan qiziqish va faollikning ortishi
Xulq-atvor	Amaliy muloqot mashqlari, didaktik o'yinlar, guruhli ishlar	Ijtimoiy me'yorlarga mos xulq-atvor va kommunikativ ko'nikmalar
Nutqiy (lingvistik)	Dialogik nutq, artikulyatsion mashqlar, audiovizual texnologiyalar	Og'zaki nutqning rivojlanishi va muloqot samaradorligi

Jadvalda keltirilgan yo'nalishlar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda kommunikativ kompetensiyani bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Har bir tarkibiy komponent o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning kompleks rivojlanishi ijtimoiy moslashuv jarayonining samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, nutqiy va emotsional sohalarining birgalikda rivojlanishi bola shaxsining jamiyat bilan samarali muloqotga kirishishini ta'minlaydi.

Xulosa.Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ijtimoiy moslashuvni samarali tashkil etishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish muhim pedagogik omil hisoblanadi. Chunki muloqot ko'nikmalari bolaning jamiyat bilan aloqaga kirishishi, o'z fikrini ifodalashi va ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishiga imkon yaratadi.Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi kognitiv, emotsional-irodaviy va xulq-atvor komponentlarining uyg'un shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon maxsus pedagogik yondashuvlar orqali samarali amalga oshiriladi. Dialogik nutqni rivojlantirish, didaktik o'yinlar, suhbatlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish bolalarning nutqiy faolligini oshiradi hamda ularning ijtimoiy muhitga moslashuvini tezlashtiradi.Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlovchi asosiy vositalardan biri bo'lib, ularning mustaqil hayotga tayyorligini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sadirova K.G'. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar tasviriy faoliyatini rivojlantirish: ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: TDPI, 2023. – 28 b.
2. Subanova B.Q. Bo'lajak surdopedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish: ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 24 b.
3. Mamarajabova Z.N. Adabiy ta'lim jarayonida zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini rivojlantirish: pedagogika fanlari doktori (DSc) diss. avtoref. – Toshkent: TDRU, 2020.
4. Mamarajabova Z.N. Ona tili o'qitish maxsus metodikasi. – Toshkent, 2020.
5. Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika. – Toshkent, 2019.
6. Ro'latova R.M., Nurmuxammedova L.Sh., Yakubjanova D.B., Mamarajabova Z.N., Amirsaidova Sh.M., Sultonova A.D. Maxsus pedagogika: darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.